

III. TOSHKENT VILOYATIDA QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI


2025- yil yanvar-dekabr

1. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
2. Toshkent viloyati qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tuman (shahar)lar kesimida
3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish
4. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
5. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar

1. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **52 857,7 mlrd so‘mni**, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – **49 909,2 mlrd so‘mni**, o‘rmon xo‘jaligi – **2 258,7 mlrd so‘mni**, baliqchilik xo‘jaligi – **689,8 mlrd so‘mni** tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Toshkent viloyatining ulushi **9,8 %** ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘shish sur‘ati



2. Toshkent viloyati qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tuman (shahar)lar kesimida

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Bekobod (*6 220,4 mlrd so‘m*), Yangiyo‘l (*4 520,4 mlrd so‘m*) va Oqqo‘rg‘on (*4 023,0 mlrd so‘m*) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Nurafshon (*80,9 mlrd so‘m*), Ohangaron (*81,9 mlrd so‘m*) va Yangiyo‘l (*89,6 mlrd so‘m*) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.


	Hajm mlrd so‘m*	O‘shish sur‘ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	52 857,7	104,2	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	80,9	101,7	0,2
Olmaliq	143,6	108,5	0,3
Angren	470,5	101,0	1,0
Bekobod	563,3	101,1	1,1
Ohangaron	81,9	103,1	0,2
Chirchiq	130,3	101,1	0,3
Yangiyo‘l	89,6	115,6	0,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	4 023,0	104,1	7,3
Ohangaron	2 395,8	105,2	4,4
Bekobod	6 220,4	104,4	11,3
Bo‘stonliq	3 851,6	104,4	7,4
Bo‘ka	2 963,8	104,1	5,3
Quyichirchiq	2 923,0	104,3	5,4
Zangiota	3 281,6	104,2	6,2
Yuqori Chirchiq	3 370,3	104,5	6,3
Qibray	2 356,5	105,4	4,5
Parkent	3 756,9	104,7	8,2
Piskent	3 121,2	103,0	5,8
O‘rta Chirchiq	2 982,5	104,9	5,6
Chinoz	2 840,7	104,6	5,1
Yangiyo‘l	4 520,4	104,2	8,7
Toshkent	2 321,2	101,2	4,5

*Toshkent shahari hajmi qo‘shilgan holda

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati tahlil qilinganda, yuqori o‘shish sur‘atlari Yangiyo‘l (115,6%), Olmaliq (108,5%) shaharlari va Qibray (105,4%), Ohangaron (105,2%), O‘rta Chirchiq (104,9%) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Angren (101,0%), Chirchiq (101,1%) va Bekobod (101,1%) shaharlarida o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati



3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **48 794,2** mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan **104,1** % ni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari **23 139,9** mlrd so'mni (**104,5** %), chorvachilik mahsulotlari **25 654,3** mlrd so'mni (**103,8** %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Bekobod (**5 906,7 mlrd so'm**), Yangiyo'l (**4 055,0 mlrd so'm**) va Oqqo'rg'on (**3 842,1 mlrd so'm**) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiyo'l (**75,2 mlrd so'm**), Nurafshon (**76,3 mlrd so'm**) va Ohangaron (**81,7 mlrd so'm**) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'ati Olmaliq (**108,7** %), Ohangaron (**105,4** %) shaharlari va Qibray (**105,3** %), Chinoz (**105,0** %), Yuqori Chirchiq (**104,7** %) tumanlarida qayd etildi. Angren (**100,6** %), Chirchiq (**101,0** %) shaharlarida va Toshkent (**101,0** %) tumanida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish


Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Bekobod (4 022,4 mlrd so'm), Oqqo'rg'on (2 282,4 mlrd so'm), Parkent (1 788,6 mlrd so'm), Yangiyo'l (1 618,1 mlrd so'm) va Quyi Chirchiq (1 538,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha nisbatan kam hajm Ohangaron (28,8 mlrd so'm), Chirchiq (31,7 mlrd so'm) va Nurafshon (31,8 mlrd so'm) shaharlarida qayd etildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Yangiyo'l (117,0 %), Nurafshon (110,6 %) shaharlari va Quyi Chirchiq (113,3 %), Bo'stonliq (110,5 %) tumanlarida qayd etildi. Olmaliq (91,1 %), Chirchiq (93,8 %), Bekobod (94,5 %) shaharlari va Yuqori Chirchiq (96,9 %) tumanida esa o'tgan yilga nisbatan o'zgarish pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan donlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	769 993,0	115,1	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	765,2	225,4	0,1
Olmaliq	229,1	110,9	0,03
Angren	296,8	80,1	0,04
Bekobod	130,5	121,1	0,02
Ohangaron	146,8	214,3	0,02
Chirchiq	0,0	0,0	0,0
Yangiyo'l	459,5	36,6	0,1
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	74 191,8	119,3	9,6
Ohangaron	36 344,6	101,3	4,7
Bekobod	120 785,7	113,1	15,7
Bo'stonliq	22 517,8	123,9	2,9
Bo'ka	87 339,5	122,8	11,3
Quyi Chirchiq	107 108,5	111,0	13,9
Zangiota	16 790,4	117,6	2,2
Yuqori Chirchiq	51 030,8	106,1	6,6
Qibray	14 472,5	134,4	1,9
Parkent	8 895,3	179,7	1,2
Piskent	53 571,3	113,0	7,0
O'rta Chirchiq	60 061,8	114,1	7,8
Chinoz	63 269,1	118,3	8,2
Yangiyo'l	41 869,7	118,8	5,4
Toshkent	9 336,3	105,8	1,2

Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Yetishtirilgan don umumiy hajmining eng yuqori ulushi Bekobod (15,7 %), Quyi Chirchiq (13,9 %), Bo'ka (11,3 %) va Oqqo'rg'on (9,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Ohangaron (0,02 %), Bekobod(0,02%) va Olmaliq (0,03 %) shaharlarida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon (225,4 %) va Ohangaron (214,3 %) shaharlari, Parkent (179,7 %), Qibray (134,4 %) va Bo'ka (122,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Kartoshka mahsulotini yetishtirish

Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Hududlar kesimida yetishtirilgan kartoshka hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	416 274,0	100,6	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	1 035,0	91,2	0,2
Olmaliq	347,6	84,3	0,1
Angren	690,7	85,5	0,2
Bekobod	3 220,6	101,6	0,8
Ohangaron	859,4	100,0	0,2
Chirchiq	1 010,0	76,1	0,2
Yangiyo'l	1 069,9	100,0	0,3
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	48 690,8	99,8	11,7
Ohangaron	7 405,7	100,7	1,8
Bekobod	38 157,4	100,5	9,2
Bo'stonliq	56 832,6	103,8	13,6
Bo'ka	13 985,8	99,2	3,4
Quyi Chirchiq	25 392,7	99,4	6,1
Zangiota	27 348,6	100,0	6,6
Yuqori Chirchiq	18 129,9	101,1	4,4
Qibray	12 712,2	118,7	3,0
Parkent	12 986,1	100,0	3,1
Piskent	31 927,4	96,4	7,7
O'rta Chirchiq	18 844,7	99,5	4,5
Chinoz	28 802,6	100,0	6,9
Yangiyo'l	35 891,5	100,0	8,6
Toshkent	30 026,8	99,7	7,2


Yetishtirilgan kartoshka umumiy hajmining eng yuqori ulushi Bo'stonliq (13,6%), Oqqo'rg'on (11,7%), va Bekobod (9,2%) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Ohangaron (0,2%), Angren (0,2%) va Olmaliq (0,1%) shaharlarida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qibray (118,7%), Bo'stonliq (103,8%) va Yuqori Chirchiq (101,1%) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	1 380 390,0	100,2	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	891,0	82,5	0,1
Olmalik	1 584,1	79,8	0,1
Angren	4 043,9	89,6	0,3
Bekobod	3 873,0	87,7	0,3
Ohangaron	2 694,9	91,2	0,2
Chirchiq	2 196,2	89,0	0,2
Yangiyo'l	3 463,3	137,4	0,3
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	150 147,2	99,6	10,9
Ohangaron	35 961,9	105,2	2,6
Bekobod	330 043,4	100,2	23,9
Bo'stonliq	79 323,6	99,4	5,7
Bo'ka	37 839,9	98,5	2,7
Quyichirchiq	51 426,0	95,9	3,7
Zangiota	95 948,2	99,8	7,0
Yuqorichirchiq	71 043,4	101,3	5,1
Qibray	52 935,5	99,8	3,8
Parkent	50 420,0	99,0	3,7
Piskent	62 852,5	106,5	4,5
O'rta Chirchiq	30 229,8	96,7	2,2
Chinoz	94 040,1	101,3	6,8
Yangiyo'l	110 074,6	99,5	8,0
Toshkent	107 800,5	100,8	7,8

Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Bekobod (23,9%), Yangiyo'l (8,0%), Toshkent (7,8%), Oqqo'rg'on (10,9%), va Zangiota (7,0%) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Nurafshon (0,1%) va Olmaliq (0,1%) shaharlarida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangiyo'l (6,0 m.) shahrida va Piskent (106,5%), Ohangaron (105,2%) tumanlarida qayd etildi.

Poliz mahsulotini yetishtirish

Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Hududlar kesimida yetishtirilgan polizlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	98 146,0	125,8	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	11,4	0,0	-
Olmaliq	10,0	47,6	-
Angren	0,0	0,0	-
Bekobod	0,0	0,0	-
Ohangaron	3,5	35,4	-
Chirchiq	0,0	0,0	-
Yangiyo'l	37,7	100,8	-
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	8 689,9	125,0	8,9
Ohangaron	552,0	198,6	0,6
Bekobod	37 299,5	110,6	38,0
Bo'stonliq	212,0	107,1	0,2
Bo'ka	4 022,4	116,4	4,1
Quyichirchiq	2 141,7	174,7	2,2
Zangiota	5 073,6	105,4	5,2
Yuqori Chirchiq	1 402,7	193,7	1,4
Qibray	1 774,8	150,8	1,8
Parkent	6 090,0	107,8	6,2
Piskent	5 112,5	112,9	5,2
O'rta Chirchiq	1 433,2	125,4	1,5
Chinoz	8 655,0	2,1 m	8,8
Yangiyo'l	15 232,9	159,4	15,5
Toshkent	382,2	101,5	0,4


Yetishtirilgan poliz umumiy hajmining eng yuqori ulushi Yangiyo'l (15,5 %), Bekobod (38,0 %) va Oqqo'rg'on (8,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Olmaliq (0,01 %), Nurafshon (0,01 %) shaharlari, Bo'stonliq (0,2 %) va Toshkent (0,4 %) tumanlarida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Ohangaron (198,6 %), Yangiyo'l (159,4 %), Qibray (150,8 %), Chinoz (2,1 m) va Quyi Chirchiq (174,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan meva va rezavorlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	160 444,0	109,6	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	1 131,1	103,0	0,7
Olmaliq	1 641,3	101,0	1,0
Angren	8 801,2	100,4	5,5
Bekobod	3 749,6	96,9	2,3
Ohangaron	388,3	100,2	0,2
Chirchiq	884,1	103,9	0,6
Yangiyo'l	503,4	102,5	0,3
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	8 607,0	116,1	5,4
Ohangaron	4 881,0	103,1	3,0
Bekobod	3 166,0	104,5	2,0
Bo'stonliq	22 447,1	122,9	14,0
Bo'ka	5 889,1	102,1	3,7
Quyi Chirchiq	6 133,6	102,8	3,8
Zangiota	7 517,1	105,1	4,7
Yuqori Chirchiq	9 961,7	111,7	6,2
Qibray	12 341,2	109,4	7,7
Parkent	21 838,6	101,3	13,6
Piskent	4 396,2	121,8	2,7
O'rta Chirchiq	5 546,4	119,9	3,5
Chinoz	5 264,1	118,3	3,3
Yangiyo'l	16 669,5	111,4	10,4
Toshkent	7 735,4	124,8	4,8

Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmining eng yuqori ulushi Qibray (7,7 %), Yangiyo'l (10,4 %), Bo'stonliq (14,0 %), Parkent (13,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Ohangaron (0,2 %) va Yangiyo'l (0,3 %) shaharlarida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bo'stonliq (122,9 %), Toshkent (124,8 %) shaharlarida qayd etildi.

Uzum mahsulotini yetishtirish

Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Hududlar kesimida yetishtirilgan uzumlar hajmi


	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	102 335,0	107,9	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	310,0	100,0	0,3
Olmaliq	22,4	0,0	-
Angren	370,6	114,5	0,4
Bekobod	65,6	107,5	0,1
Ohangaron	80,0	118,3	0,1
Chirchiq	288,4	101,8	0,3
Yangiyo'l	142,5	100,8	0,1
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	9,2	107,0	-
Ohangaron	774,6	188,1	0,8
Bekobod	1 169,4	119,5	1,1
Bo'stonliq	9 280,9	128,6	9,1
Bo'ka	748,5	112,9	0,7
Quyichirchiq	400,5	105,4	0,4
Zangiota	4 349,1	120,1	4,2
Yuqori Chirchiq	2 349,4	46,8	2,3
Qibray	3 227,3	106,2	3,2
Parkent	66 269,1	106,8	64,8
Piskent	3 880,0	110,0	3,8
O'rta Chirchiq	649,3	113,4	0,6
Chinoz	1 448,7	133,3	1,4
Yangiyo'l	1 922,3	129,2	1,9
Toshkent	4 440,2	126,0	4,3

Yetishtirilgan uzum umumiy hajmining eng yuqori ulushi Parkent (64,8%) va Bo'stonliq (9,1%) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Olmaliq (0,02%), Ohangaron (0,1%), Yangiyo'l (0,1%) va Bekobod (0,1%) shaharlarida va Oqqo'rg'on (0,01%) tumanida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Ohangaron (188,1%), Yangiyo'l (129,2%), Chinoz (133,3%), Toshkent (126,0%), Oqqo'rg'on (108,2%), Zangiota (120,1%), Bo'stonliq (128,6%) tumanlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

47,4 %
Dehqonchilik
mahsulotlari



52,6 %
Chorvachilik
mahsulotlari

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 62,0 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 17,4 foizi fermer xo'jaliklariga, 20,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Yangiyo'l (2 436,9 mlrd so'm), Bo'stonliq (2 367,6 mlrd so'm), Yuqori Chirchiq (1 906,2 mlrd so'm), Bekobod (1 884,3 mlrd so'm) va Zangiota (1 833,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiyo'l (30,4 mlrd so'm), Nurafshon (44,5 mlrd so'm) va Ohangaron (52,8 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Olmaliq (118,6 %) va Ohangaron (107,0 %) shaharlari, Bekobod (112,4 %), Yuqori Chirchiq (110,5 %) tumanlarida qayd etildi. Yangiyo'l (88,2 %), Nurafshon (94,8 %) shaharlari va Toshkent (98,8 %), Oqqo'rg'on (100,0 %), Bo'stonliq (100,7 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda **320,3** ming tonna go'sht, **1 095,4** ming tonna sut, **1 754,1** mln dona tuxum olindi va **23,4** ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **102,0 %** ni, sog'ib olingan sut – **101,4 %** ni, olingan tuxum – **108,1 %** ni hamda ovlangan baliqlar – **107,9 %** ni tashkil qildi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan **3,3** foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, **67,3** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **29,4** foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning **5,7** foizi fermer xo'jaliklari, **87,9** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **6,4** foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Yanvar-dekabr 2025- y.	O'sish sur'ati, % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	320,3	102,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	10,4	111,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	215,6	98,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	94,3	110,8
Sut, ming tonna	1 095,4	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	62,1	116,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	962,7	98,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	70,6	142,9
Tuxum, mln dona	1 754,1	108,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4,3	161,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	960,7	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	789,1	116,9
Jun, tonna	1 723,0	96,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	355,0	101,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 260,0	94,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	108,0	102,9
Baliq, ming tonna	23,4	107,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3,1	122,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,1	123,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	20,2	105,9

Shu bilan birga, olingan tuxumning **0,2** foizi fermer xo‘jaliklariga, **54,8** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **45,0** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

O‘z navbatida, ovlangan baliqlarning **13,1** foizi fermer xo‘jaliklariga, **0,4** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **86,5** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	<i>Go'sht (tirik vaznda), tonna</i>	<i>Sut, tonna</i>	<i>Tuxum, ming dona</i>
Toshkent viloyati	320 352,0	1 095 425,0	1 754 061,0
<i>shahar</i>			
Nurafshon	503,2	2 174,0	973,9
Olmalik	456,8	10 007,2	1 811,7
Angren	3 658,7	8 223,2	3 170,4
Bekobod	6 454,9	10 454,4	6 067,2
Ohangaron	566,8	2 769,2	1 886,5
Chirchiq	625,6	8 047,0	6 764,0
Yangiyo‘l	312,1	1 742,0	1 073,6
<i>tumanlar</i>			
Oqqo‘rg‘on	17 313,8	76 259,6	43 412,9
Ohangaron	20 605,9	69 624,1	106 740,8
Bekobod	23 202,2	92 920,1	52 941,9
Bo‘stonliq	27 777,0	113 851,9	186 155,2
Bo‘ka	18 730,2	58 751,0	73 698,4
Quyi Chirchiq	12 912,1	55 141,4	77 568,9
Zangiota	24 153,2	45 912,6	219 530,6
Yuqori Chirchiq	20 838,7	111 587,8	149 082,0
Qibray	15 316,9	58 649,4	284 632,6
Parkent	15 755,5	82 836,2	53 327,3
Piskent	20 568,1	54 335,2	51 614,1
O‘rta Chirchiq	25 638,3	60 599,9	134 245,1
Chinoz	12 631,0	63 993,6	67 564,8
Yangiyo‘l	42 187,9	64 335,2	118 313,2
Toshkent	9 221,1	36 754,0	101 471,9

4. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026- yilning 1- yanvar holatiga barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni **1 012,6** ming boshga yetdi (*o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 % ga kam*), sigirlar – **424,3** ming boshga (*3,1 % ga kam*), qo‘y va echkilar – **1 112,2** ming boshga (*0,1 % ga ko‘p*), parrandalar – **19 892,5** ming boshga (*9,5 % ga ko‘p*) yetdi.

2026- yilning 1- yanvar holatiga xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O‘shish sur‘ati
Yirik shoxli qoramollar	1 012,6	99,3
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	92,4	104,3
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	851,9	99,3
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	68,3	93,1
shundan sigirlar	424,3	96,9
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	29,8	102,9
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	371,1	98,3
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	23,4	74,1
Qo‘y va echkilar	1 112,2	100,1
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	328,9	100,9
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	679,4	99,1
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	103,9	104,9
Otlar	57,7	100,8
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	11,6	95,0
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	40,7	101,0
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,4	113,4
Parrandalar	19 892,5	109,5
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	158,8	69,2
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	8 739,6	99,5
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10 994,1	120,2

2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,1 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 84,2 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 7,0 foizi fermer xo'jaliklariga, 87,5 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 29,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 61,1 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 9,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 0,8 foizi fermer xo'jaliklariga, 43,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 55,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026- yilning 1- yanvar holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Toshkent viloyati	1 012 646	1 112 235	19 892 501
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	3 502	2 743	6 244
Olmaliq	7 227	10 558	15 273
Angren	19 590	23 191	36 658
Bekobod	6 047	11 546	33 936
Ohangaron	2 612	3 216	17 146
Chirchiq	4 221	6 126	34 176
Yangiyo'l	880	789	7 276
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	70 713	44 186	296 191
Ohangaron	80 219	286 072	1 899 157
Bekobod	93 408	48 062	455 714
Bo'stonliq	73 935	138 003	2 473 935
Bo'ka	82 210	66 474	647 176
Quy Chirchiq	54 031	14 388	578 019
Zangiota	41 510	21 908	2 789 654
Yuqori Chirchiq	67 651	38 037	1 211 807
Qibray	49 831	34 480	1 812 256
Parkent	62 109	115 192	542 142
Piskent	67 326	86 045	927 155
O'rta Chirchiq	56 470	47 550	2 480 022
Chinoz	63 469	41 046	794 261
Yangiyo'l	70 805	48 306	1 802 423
Toshkent	32 890	20 268	1 007 066

5. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o‘z iste‘moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo‘jaligida, o‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo‘jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo‘jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo‘jaligi boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo‘jaligi a‘zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo‘jalikdir.

Tomorqa xo‘jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog‘liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

Go‘sht yetishtirish – so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog‘ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.